

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**UMUMTA'LIM MAKTABLARI RUS TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNI
QO'LLASHNING AHAMIYATI**

Yuldasheva Yulduz Berdiyorovna
Samarqand viloyati Narpay tumani
64-umumta'lismaktabi
Rus tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada rus tili dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish xususida so'z boradi. Ayniqsa, «Keys-stadi», «Pantomimo», «Bir jumladan iborat hikoya» va «Qaynoq koptokcha» kabi usullardan foydalanish mumkinligi batafsil yoritiladi.

Kalit so'zlar: interfaol usullar, rus tili, tafakkur, muloqot, metod, keys-stadi, pantomimo.

Interfaol metod - o'qitish bo'yicha o'quvchilar hamda o'qituvchini faollashtirish malakali o'qituvchilarning bilimlarini o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarini davolash darslari samaradorligini oshirishga yordam berdi. Interfaol ta'limining asosiy mezonlari: norasmiy bahsmunozaralar tugatish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ishlashlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sindf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar hayot va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular o'qitish-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda davom etishi mumkin.

Bugungi ta'lim jarayonini interfaol usullarsiz tasavvur etish qiyin. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol usullar muayyan guruhlarda o'qitiladigan o'quv fanining bosh maqsadiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Aks holda, qo'llanilgan interfaol usul hech qanday ahamiyatga ega bo'lmay qoladi. O'qituvchi tanlagan usul dars davomida bolaning faolligini, kattalar va tengdoshlari bilan to'g'ri muloqot qila olishini ta'minlashi, tilda mavjud, biroq o'quvchi uchun notanish bo'lgan yangi so'z va iboralarning mazmunini anglash, eslab qolishga, muloqot jarayonida qo'llashga harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishi zarur. Taniqli didakt olimlardan biri I. Y. Lerner o'quvchilarda ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish masalasiga bag'ishlangan «Развитие мышление учащихся». (M.: Prosvesheniye, 1982) nomli tadqiqotida: «Tafakkur bilimlarni o'zlashtirish bilan rivojlanadimi?» degan muammoni o'rta ga tashlaydi va bu savolga «Yo'q» deya javvob beradi. Bilimlar zanjirida agar aloqadorliklar — bog'lanish, qiyos, sabab-natija munosabatlari bo'lmasa, u tafakkurni, ya'ni tarbiya ko'rgan shaxsni bera olmaydi. Bilim olishning ham, ta'lim oluvchiga bilim berishning ham, unga malaka, ko'nikma, odatlarni singdirishning ham, tabiatini shakllantirishning ham xilma-xil vosita, yo'l va usullari mavjud. Rus tiliga ixtisoslashgan sinflarda o'zbek tili ta'limi jarayonini bir qancha interfaol metodlardan

foydalanimish orqali tashkil qilish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, keys-stadi usuli. «Keys-stadi» inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” — aniq vaziyat, hodisa, “study” — o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. O‘zbek tili darslarida asosan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan matnlar keys topshirig‘i uchun tanlanadi. Masalan: Kunlardan bir kuni sohibqiron Amir Temur olis qabilalardan biriga hujum qilibdi. Tabiiyki, Temuring son jihatdan ko‘p va shu bilan birga juda yaxshi qurollangan lashkari qabilani osongina bosib olibdi. Sohibqironning huzuriga qabila oqsolini olib kelibdilar. Qabila oqsoli Amir Temurga:

—Ey Temur, agar sen jallod bo‘lsang, jonimizni ol, agar qassob bo‘lsang, mayli bizni so‘y, agar sen ... bo‘lib kelgan bo‘lsang, Keys topshiriqlari: Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, matnni davom ettiring, xulosalang. Tugallangan matnga mos sarlavha tanlang. Matn olib borilayotgan mashg‘ulot mavzusiga mos ravishda tahlil eting.

Masalan: reja bo‘yicha «Morfemik tahlil» mavzusi o‘rganilayotgan bo‘lsa, matn morfemik jihatdan tahlilga tortiladi. O‘quvchilar ushbu keysni o‘z tafakkur doiralaridan kelib chiqqan holda davom ettirishlari, bugungi kun bilan bog‘lab, xulosalashlari ham mumkin. Topshiriqning javobi: —Ey Temur, agar sen jallod bo‘lsang, jonimizni ol, agar qassob bo‘lsang, mayli bizni so‘y, agar sen adolatli shoh bo‘lib kelgan bo‘lsang, bizgaadolatingni ko‘rsat! Bu so‘zlarni eshitgan buyuk sarkarda o‘ylanib qolibdi. Axir «Kuch adolatdadir» shiori uning bir umrlik hayot maslagi emassi? Temur butun lashkari bilan hech qanday o‘ljasiz qabilani tark etibdi. Oqsoqolning o‘ta tadbirkor va donoligi qabilaning omon qolishiga sabab bo‘libdi. Sarlavha «Dono oqsoqol»; «Adolatparvar shoh»tarzida bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda dunyo adabiyotida, shu bilan birga o‘zbek adabiyotida har qanday insonni ta’sirlantira oladigan, o‘zi atigi bir nechta so‘zdangina iborat qisqa hikoyalar yozish tajribasi amalga oshirilmoqda. Bunday hikoyalar tafakkurni charxlashga, talabalarning mustaqil fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. O‘zbek tili darslarida mashg‘ulotning so‘nggi bosqichida «Pantomimo» o‘yinini o‘tkazish mumkin. Bunda o‘quvchilar 3 guruhga ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan kishi doskaga chiqariladi. Ularga turli so‘zlar ro‘yxat asosida beriladi. Ular biror bir so‘z aytmasdan imoishoralar, harakatlar orqali so‘zlarni qolgan guruh a’zolariga tushuntirishlari kerak. Topshiriqni bajarish uchun 1 daqiqa vaqt belgilanadi. Shart bajarilishi davomida guruh a’zolari topilgan so‘zlarni daftarlariqa qayd etib boradilar. Mashg‘ulot mavzusiga mos ravishda so‘zlarni fonetik, morfemik, leksik, morfologik, sintaktik jihatdan ham tahlilga tortishlari mumkin. Xullas, rus tiliga ixtisoslashgan sinflarda o‘zbek tili darslarini bir qator interfaol usullar orqali o‘tkazish o‘z samarasini beradi. Bunda asosiy e‘tibor o‘quvchilarining tafakkurini o‘stirish, ularning mustaqil ishslash mahoratini oshirishga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov J. Chet tili oqitish metodikasi.-T. 1996
2. Tursunov I.Y. Xalq pedagogikasing dolzarb muammolari. T.: Oqituvchi, 1990
3. N. Q. Xatamova, M.N.mirzayeva. “HORIJIY TILLAR DARSLARIDA QO’LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo’llanma), Navoiy, 2006, 40 bet